

MUSTAQILLIK VA DIN

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi*

***Abdullayeva Jasmina Bozor qizi
Bobomurodova Bibirobiya Bahrom qizi
Xolboyeva Dildora Bahriddin qizi***

Annotatsiya.

Ushbu magolada Mustagil davrida diniy qadriyatlarning tiklanishi, Diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi, Diniy tashkilotlar faoliyatidagi muhim o'zgarishlar batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Diniy bag'rikenglik, aqidaparaslik, etiqod va madaniyat, siyosiy mustaqillik, diniy omil, dinga munosabat, vijdon erkinligi, jamiyat taraqqiyoti, mazmun va axamiyat.

Kirish.

Xalqlarimiz tafakkurida yuksak axloqiy ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustaxkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur
SH.M.Mirziyoyev.

Mustaqillik bebaho ne'mat, negaki, aynan shu g'oya atrofida ko'plab jasur ajdodlarimiz o'zining aziz jonini fido qilgan. O'z erki o'z qo'lida bo'lmagan millatning kelajagi mavhumdir. Yurtni istilo qilgan bosginchilarga xos narsa shundan iboratki, ular tomonidan nafagat moddiy boyliklar tashib ketiladi va aholisi qullik darajasiga tushiriladi, balki, o'sha aholining tili, dini va madaniyatiga ham tajovuz qilinadi. Jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri sanalgan va dunyoga dong i ketgan allomalar yurti hisoblangan vatanimiz boshiga ham mana shunday sinovlar tushgan edi. Din (arabcha: c-,e'tiqod", ,ishonch", ,itoat") jamoat tomonidan shifrlangan gadimiy yozuvlar, mifologiya va rituallarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir; shuningdek, shaxsiy e'tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo'lishi ham mumkin. „Din“ atamasi ham jamoat e'tiqodiga oidshaxsiy amaliyotlarni, ham guruh tomonidan bajariluvchi rituallarga qo'llanadi.

Mustaqillik va din — har ikki tushuncha xalqning tarixiy rivojlanishida, madaniyatida va milliy o'zligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Din insoniyat tarixi davomida odamlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, mustaqillik esa biror xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyatini yaratadi. Shu bois, din va mustaqillik o'rtasidagi munosabatlar har doim jiddiy e'tiborga loyiq bo'lgan mavzu hisoblanadi.

O'zbekiston - huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsiyamizda hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Ming shukrki, yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhiti hukm surmoqda. Barcha din vakillari ibodat amallarini eminerkin ado etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillaridan diniy sohaga o'zbek xalqining milliy ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida alohida e'tibor garatildi. Shu nuktai nazardan, O'zbekistonda davlat va din munosabatlari quyidagi tamoyillar asosida olib borilmokda: dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish: diniy e'tigodlarni fugarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish; diniy qarashlarga amal qiluvchi fugarolarning ham, ularga amal gilmaydigan fugarolarning ham hukuglarini teng kafolatlash hamda ularni ta'gib qilishga yil qo'ymaslik; Mustaqillik yillarida dinning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatida tutadigan o'rni va mavqei aniqbelgilanib, bu sohada mustahkam qonunchilik poydevori yaratildi.

. Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fugarolar, har xil e'tigodlarga mansub diniy , tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi va eksteremizm asosida diniy munosabatlarni keskinlashtirilishiga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi. Muayyan dinga e'tiqod qiluvchilarni boshqasiga kiritishga qaratilgan prozelitizm va missionerlik faoliyati qonunan man etiladi. Islom ma'rifatini keng yoyish va tajriba almashish magsadida xalqaro alogalar ham kengaytirilmoqda. Jumladan, bu yil yurtimizda "Islom - ezgulik va tinchlik dini" hamda "Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, Bag'rikenglik haftaligi o'tkazildi. Din (inglizcha: religion) atamasi ham Qadimgi fransuz va anglo-norman tillaridan (milodiy 1200-yillarda) kelib chiqqan bo'lib, huquq tuyg'usini hurmat qilish, axloqiy majburiyat, muqaddaslik, xudolarga hurmat degan ma'nolarni anglatadi(34). O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochig va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekistan aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir gatorda katolik, protestant, boshga mazhab (jami 15 dan ortig konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustagilligini mustahkamlash, siyosiy ijtimoiy bargarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. Din insoniyatning ko'plab xalqlari uchun ma'naviy yetakchi va yagona tizim bo'lib xizmat qiladi. Din, odatda, bir xalqning madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Mustaqillik uchun kurashgan xalqlar ko'pincha diniy qadriyatlarni o'z madaniyatining asosiy tarkibiy qismi sifatida ko'rganlar. Din xalqni birlashtirish, xalqning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga xizmat qilish, uning o'zligini saqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Mustaqillik harakati vaqtida dinning ahamiyati ko'pincha ikki tomonlama bo'ladi. Bir tomondan, din mustaqillikka erishish uchun motivatsiya manbai, ikkinchi tomondan esa, mustaqillikdan keyingi davrda xalqni birlashtiruvchi omil sifatida qaraladi. Diniy an'analarga sodiqlik, mustaqillikni saqlash va yanada rivojlantirishda o'z rolini o'ynaydi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortig konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortig konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o'zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustagil usulidan biri sifatida garagan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining dinga bo'lgan o'ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa turli yo'nalishlar paydo bo'lgan bo'lsa, 20-asrda dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshgacha qarash va nazariyalar (K. Yung, E. Dyurkxeym) vujudga keldi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, milliy qadriyatlarimiz, ayniqsa, boy va gadimiy mumtoz adabiyotimizning beqiyos namunalarini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Din va Mustaqillik: Qarama-qarshilik yoki Hamkorlik?

Biroq, mustaqillik va din o'rtasida ba'zan qarama-qarshiliklar ham yuzaga keladi. Ayrim hollarda diniy ta'sirlar siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa davlatning dunyoviy prinsiplariga zid bo'lishi mumkin. Shunday qilib, mustaqil davlatda diniy erkinlik bilan birga, dunyoviy qonunlar va prinsiplarga ham rioya qilinishi zarur. Shu bilan birga, din va mustaqillik o'rtasidagi balansni topish, jamiyatning barqarorligi uchun muhimdir.

Xulosa.

Bir so'z bilan xulosa qilib aytganda Mustaqillik bebaho ne'mat bo'lib. mamlakatning rivojlanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababdan ham, mustaqillikni asrab avaylash va uni mustahkamlash har bir yurtdoshimizning muqaddas burchidir. Buning uchun yoshlarimiz tarixni yaxshi bilmog'i va undan o'ziga kerakli xulosa chiqarmog'i lozim. Zero mustaqillik - bebaho ne'mat ekanligiga tarix shohiddir. Mustaqillik va din o'rtasidagi munosabatlar murakkab va o'ziga xosdir. Har bir xalq uchun diniy qadriyatlar mustaqillikni ta'minlashda, uning o'zligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy davrda mustaqillik va diniy erkinlikning barqarorligi uchun davlatlar o'z siyosatini, jamiyatni yanada rivojlantirishga yo'naltirishi lozim. Mustaqillik va din o'rtasidagi uyg'unlik, xalqlarning baxtli va erkin hayot kechirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muhammad al-Buxoriyning "Sahih" hadislar to'plami.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Tancidiy tahlil, gatiy tartib -intojom va shaxsiy javobgarlik - har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-104 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-48 b.